



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026

3-JILD 1-SON



YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

TO'PLAMI

3 - JILD, 1 - SON

2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



Erta bolalik davrida ta'lim va tarbiya jarayoniga pedagogik yondashuvlar tatbiqi

Qahhorova Marjona Ikromjon qizi

+99891 253-02-14 qahhorovamarjona99@gmail.com

Buxoro Davlat Pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada erda bolalik davrida bolalarga ta'lim va tarbiya berish jarayonining muhim jihatlari yoritilgan. Ta'lim jarayonida pedagogik yondashuvlardan foydalanish bolalarning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bayon etilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'limda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Erta bolalik, ta'lim va tarbiya, pedagogik yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, maktabgacha ta'lim.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimiga, ayniqsa, erda bolalik davridagi ta'lim va tarbiya jarayoniga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirmoqda. Chunki bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivoji aynan shu davrda boshlanadi. Erta bolalik davrida berilgan ta'lim va tarbiya keyingi bosqichlardagi o'quv faoliyatining poydevorini tashkil etadi. Erta bolalik davri bolaning miya rivojlanishi eng tez va faol bo'ladigan davrdir. Bu davrda bolaning dunyoqarashi shakllanadi, o'qish, yozish va yodlash kabi asosiy bilimlarni o'zlashtirishni boshlaydi. Aqliy rivojlanish, til o'rganish, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari aynan bu davrda shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning miya tuzilmasi va uning faoliyati ushbu davrda sezilarli darajada o'zgaradi. So'zlarni tez yodlaydi va fantaziyalari kuchli bo'ladi. Shuning uchun, erda ta'lim bolaning keyingi o'quv jarayonlari va umuman hayotdagi muvaffaqiyatlari uchun asosiy omil hisoblanadi. Erta ta'lim bolaning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda bola boshqa bolalar bilan muloqot qilishni, o'ynashni, hissiyotlarini boshqarishni o'rganadi. Pedagog va ota-onalar, bolaga o'zini boshqarish, dushmanlikni yengish, o'z fikrini ifoda etish kabi ko'nikmalarni o'rgatishlari kerak. Shu bilan birga, bola o'z hissiyotlarini boshqarishni o'rganib, ijtimoiy jihatdan moslashuvchan va mustaqil bo'lishga boshlaydi.

Erta bolalik (0–6 yosh) davrida bolaning miya rivojlanishi juda tez bo'ladi. Shu sababli, bolalar sezgirlik davrlarida til, nutq, his-tuyg'u va ijtimoiy ko'nikmalarni tez egallaydilar. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'yin orqali o'rganishni afzal ko'radilar. Shuning uchun, pedagogik yondashuvlar bolalarning faol ishtirokini rag'batlantirishi lozim. Erta bolalik davrida ta'lim va tarbiyani tashkil etishda quyidagi yondashuvlardan foydalanishimiz mumkin.

- 1. Faol yondashuv** – bolalar o'yin, eksperiment va tajriba orqali bilim olishadi.
- 2. Individual yondashuv** – bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlariga moslashtirilgan ta'lim.
- 3. Integrativ yondashuv** – turli fan va faoliyatlarni birlashtirib, bolalarning umumiy rivojlanishini ta'minlash.

4. Madaniy va axloqiy yondashuv – bolalarda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik jarayonni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Erta yoshda olingan ta'lim nafaqat o'quv ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki bola o'qishga bo'lgan qiziqishini va mustahkam o'quv odatlarini shakllantiradi. Maktabgacha ta'limda to'g'ri yondashuv, bolaning o'qish va o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, erta ta'lim bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishi, o'zini boshqarish, samarali va mustahkam o'quv odatlarini shakllantirishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida, bola maktabda va keyinchalik oliy ta'limda muvaffaqiyatli o'qishga yordam beradi.

Erta bolalikda ta'lim va tarbiya jarayoniga pedagogik yondashuvlarni tatbiq qilishda dunyoning rivojlangan mamlakatlari samarali tajribaga ega. Masalan, Yaponiya, Finlandiya, AQSH kabi davlatlar.

Shulardan Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning ijtimoiy, hissiy va intellektual rivojlanishiga katta e'tibor beradi. Yaponiyada erta bolalalikda ta'lim va tarbiya jarayonida har bir bolaning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Shu bilan birga, bolalar turli faoliyatlar orqali o'zaro muloqot qobiliyatini oshiradilar. Finlandiya esa erta ta'lim va tarbiya berish bo'yicha butun dunyoda namunali deb hisoblanadi.

Bu davrda to'g'ri ta'lim, bola ongining rivojlanishiga, o'quv ko'nikmalarini shakllantirishga, shuningdek, o'quv muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning bu jarayonda o'ynagan roli bolaning keyingi ta'limidagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Shuning uchun, bolalarga erta yoshdan boshlab sifatli ta'lim berish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlash uchun muhimdir.

Xulosa. Erta bolalik davrida ta'lim va tarbiya jarayoniga pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish bolalarning to'laqonli rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Ushbu pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonini boyitadi, bolaning iqtidorini oshiradi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.Abdullaeva, F.Qodirova Maktabgacha pedagogika. Erta yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi, pedagogik yondashuvlar va metodlar yoritilgan. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. F.R Qodirova Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Maktabgacha ta'lim jarayonini tashkil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. O. Xasanboeva, D. Raxmonova Maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
4. Сластёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – Москва: Академия, 2017.
5. Подласый И.П. Педагогика. – Москва: Юрайт, 2019.
6. Бабаева Т.И. Педагогика раннего детства. – Санкт-Петербург: Детство-Пресс, 2016.